IPAK AKATSIYASI (*ALBIZZIA JULIBRISSIN* DURR) KO‘CHATLARINI YETISHTIRISH

[1]Xamroyev Xusen Fatullayevich., [2]Janabayev Naurazbay Jumabayevich
[1]Toshkent davlat agrar universiteti, dotsent, O‘zbekiston.
[2]Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, tayanch doktorant, O‘zbekiston.

https://doi.org/10.5281/zenodo.14053545

Annotatsiya. *Maqolada ipak akatsiyasi ko‘chatlarini yetishtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirib o‘tilgan. O‘rganish natijalariga ko‘ra ipak akatsiyasi urug‘larini ekisholdi ishlov berilmasdan vegetatsiya davrining istalgan muddatlarida ekish mumkinligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *albizia julibrissin DURAZZ, urug‘, ekish muddati, nihol, o‘sish davomiyligi, urug‘ unuvchanligi*

Аннотация. *В статье приведены результаты исследования выращивание саженцев шелковой акации. По результатам исследования приводятся данные о том, что семена шелковой акации можно сеять в любой период вегетации без предпосевной обработки.*

Ключевые слова: *albizia julibrissin DURAZZ, семян, срок посев, сеянцы, период роста, прорашивание семян*

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida keng qamrovli ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bular tartib bilan qurilayotgan uy-joylar, bog‘-parklar, sayilgohlar, sport inshootlari va maydonlari, o‘quv maskanlari va hokazolar. Natijada bular atrofida fasllarga va mahalliy sharoitga mos keladian manzarali yaproq va nina bargli daraxt, buta va gul turlari yetishtirilmoqda. Shunday manzarali daraxt turlaridan biri – bu ipak akatsiyadir.

Ipak akatsiyasi doimiy ravishda gullaydi. Gullash davri uzoq davom etadi. 23 kundan 85 kungacha va undan ko‘proq davom etishi mumkin. Botanika bog‘ida gullash davri 152 kungacha davom etgan.

Ko‘kalamzorlashtirishda foydalanilgan daraxtzorlarda gullash davri undanda ko‘proq davom etgan. Generativ organlari gullaydigan yilida gullashidan oldin may oyida shakllanadi. Ular o‘tgan yilgi novdalar qo‘ltig‘ida paydo bo‘ladi. Gullash bosqichi novdada reduksiya bilan hosil bo‘ladi. Uning uzunasiga qisqartirilishi va barglarning saqlab qolinishi yirik tangachasimon shaklda bo‘ladi.

Yillik novdaning uchida murakkab popukka o‘xshash gulto‘plami hosil bo‘ladi. Gullari soni 16-19 tagacha bo‘ladi. Guldoni soyabonsimon bo‘lib, to‘p hosil qiladi. To‘plar soni 3-4 tadan iborat bo‘ladi. Oxirgilari yillik novdaning joylashadi va oxirgi novda qo‘ltig‘ida 2 qatorli barglarda hosil bo‘ladi.

Guldoni murakkab popukli, qalamchasimon, g‘uddalari ikki qatorli rudument barglarga yaqin joylashadi.

Gullarning difformizmi kuzatiladi. Gullarning ma’lum qismi changchi va rivojlanmagan changdon bilan bitta ikkita rivojlangan changdon bilan rivojlanadi. Changchilari mayda, to‘rt kamerali sariq rangli bo‘ladi.

Changlatuvchisi juda kichik sariq changchilardan tashkil topgan.

Gullari turli-tuman rangli-pushti rangdan to tiniq pushti ranggacha va hatto qizil ranggacha bo‘ladi.

Bo‘yaydigan pigmentlari yuqori ingichka tolali iplarda joylashgan bo‘lib, asosan changchilarga yaqin joylashadi.

Gullari asalarilar va hashoratlar yordamida changlanadi. Changchilari o‘zi xususiyatiga egadir.

Bitta soyabonsimon guldonining gullashining davomiyligi kun bo‘lib, 4 kunda u tushib ketadi yoki rivojlanib tuganak hosil qiladi.

Gullash davomida gullari popuksimon ko‘rinishda bo‘lib, 40-43 kun davom etadi.

Gulli soyabonlarning gullash davri aniq bir ketma-ketlikda davom etadi.

Birinchi bo‘lib murakkab popukli barglar qo‘ltig‘ida, undan so‘ng – undan tepada joylashadigan murakkab popuklardan tuzilgan bo‘ladi. Gullash jarayoni bir dastadan boshqa dastaga o‘tadi. Bunda changlanmagan gullar ham qoladi.

Bunday ketma-ketlikda gullash natijasida dukkaklar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Dukkaklarning hosil bo‘lishi murakkab gullarning o‘rtasida kuzatilgan. Dukkaklari osiluvchan, novdada meva oyoqlariga osilib turadi. Pishib yetilganda dukkaklar ochilib ketmaydi, silliq, uzunchoq, asosi bukilmaydigan 20 sm gacha 2.0-2.2 sm kenglikda ega bo‘lib, 15 tagacha urug‘ saqlaydi.

Ipak akatsiyasi iyun-avgust oyida gullaydi. 1 kg urug‘ida 20-22 ming tagacha urug‘ bo‘ladi. Ushbu ming dona urug‘ og‘irligi 45- 70 g gacha to‘g‘ri keladi. Urug‘ining uzunligi 10-12 sm gacha boradigan och sariq rangli urug‘ g‘ilofchalari ichida bo‘ladi. Uni urug‘i daraxt shoxida tayyor bo‘lgandan so‘ng tozalab terib olinadi.

Terilgan urug‘lar kuzda saqlab qo‘yiladi va stratifikatsiya qilinib erta bahordan ekib boriladi. Uning urug‘ini erta bahorda ekishdan oldin iliq suvga ikki-uch kun ivitib so‘ng egatning har bir metriga 4-5 grammdan 3-4 sm chuqurlikkacha ekib boriladi. Ekilgan urug‘lar toza turishi va yaxshi o‘sib rivojlanishi uchun egatning tepa qismidan uzunasiga chirigan go‘ng to‘kib chiqiladi. Tez unuvchan tur bo‘lganligidan urug‘dan tez unib chiqadi va nihollari ham tez o‘sa boshlaydi.

Ipak akatsiyasining uruglarini ekish uchun chuqurlashtirilgan 2 x 1,2 metr shakldagi egatlar tayyorlash va 40 sm yo‘laklar barpo etiladi.

Yosh nihollar nozik bo‘lganligidan hashoratlar zarar etkazmasligi uchun nihollar dorilab boriladi. Ushbu daraxt ko‘chatlaridan bugungi kunda ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Shuning uchun yosh nihollar sharsimon bo‘lib o‘sishida yoshligidanoq parvarishlab o‘z vaqtida agrotexnik choralar qo‘llab boriladi. YA’ni o‘z vaqtida nihollar orasiga ishlov berish, tuproqni yumshatish begona o‘tlardan tozalash, o‘g‘it berish, kultivatsiyalar o‘tkazish va hokazolar. Uning ildizi baquvvat bo‘lib tuproqqa yaxshi joylashadi.

Kuzda sentabr oyining oxirida, noyabrda ekish mumkin. Lekin kuzda sepilgan urug‘larni hashoratlardan saqlab qolish ishlarini bajarish kerak.

Urug‘i mayda bo‘lgan daraxtlar urug‘ini kuzda ekish tavsiya etilmaydi. Qumli yerlardagi ko‘chatxonalarda urug‘lar 15-martgacha ekilishi kerak. Engil tuproqli tog‘ ko‘chatxonalarida kuzda ham, bahorda ham ekish mumkin.

Urug‘larni ekish chuqurligi ularni unib chiqishiga va rivojlanishiga tasiri katta. Chuqur ekilgan urug‘lar tuproqdagi nam bilan yaxshi ta’minlanadi, lekin qalin tuproq qatlamidan o‘tishi qiyin bo‘ladi. Juda chuqur ekilsa umuman unib chaqa olmaydi. Sayoz ekilgan urug‘lar quruq tuproqda nobud bo‘lishi mumkin. Urug‘larni ekish chuqurligi tuproqqa, ob-havoga, ekish vaqtiga, sugorish tizimiga va urug‘ning katta-kichikligiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘rtacha urug‘ni ko‘mish chuqurligi uning uch to‘rt barobar qalinligiga to‘g‘ri keladi. Yaxshi rivojlangan ko‘chat parvarish qilishda ekish meyyorining ahamiyati juda katta. Ko‘chatlar siyrak bo‘lsa, maydon to‘liq foydalanilmaydi, ko‘chatlarning tannarxi ko‘tarilib ketadi. Ko‘chatlar miqdori maydonda juda zich bo‘lsa, ularni miqdori ko‘p bo‘lganligi bilan sifati standartga javob bermaydi.

Ko‘chatlarni ma’lum maydonda siyrak yoki zich holatda bo‘lishi ekish meyyoriga bog‘liq, u optimal holatda bo‘lishi kerak. Sepilgan urug‘larni ustidan katak bilan zichlash natijasida urug‘lar tuproqqa yaqinlashadi va suv kapilyar orqali urug‘ga etkaziladi. 3 sm va chuqurroq ekiladigan urug‘lar uchun og‘ir katoklar ishlatiladi.

Bugun mamlakatimizning turli tarmoqlarida xalq xo‘jaligida va ko‘kalamzorlashtirish sohasida yuqori sifatli ekish uchun zarur bo‘lgan har xil turdagi yaproq va nina bargli ko‘chat turlari yetishtirishning agrotexnik tadbirlaridan biri bu joyning tuprog‘iga ishlov berishdir. Tuproqqa ishlov berish bu mexanik jarayon bo‘lib texnika vositalari va zarur agregatlar yordamida nihol va ko‘chatlarni yaxshi rivojlanishida uning suvga, havo haroratiga va ozuqa moddalariga bo‘lgan sharoitini yaxshilab berishda xizmat qiladi. Tuproqqa o‘z vaqtida va to‘g‘ri ishlov berib borish tuproq samaradorligini oshirib boradi. Kuzgi tuproqni ag‘darish bu chim holida va boronalashdan iborat bo‘ladi. So‘ng esa tuproqdagi namlikni asrab qolish uchun mololash ishlari o‘tkaziladi. Namligi yuqori bo‘lgan maydonlarda yerni yumshatish 5-6 sm gacha, qurg‘oqchilik yuqori bo‘lgan maydonlarda 6-8 sm dan, 10-12 sm chuqurlikkacha bajariladi.

Tuproqqa ishlov berish tuproq nam bo‘lganidan keyin o‘tkaziladi, ya’ni namlik o‘rtacha bo‘lishi va yer loy bo‘lmasligi zarur. Agar kuz faslida yog‘ingarchilik miqdori kam bo‘lib, yerda namlik keskin kamayib ketsa, yerni haydashdan oldin yer maydonlari yengil sug‘orib olinadi. Ko‘chatzor barpo qilish uchun ajratilgan maydonlarda tuproqqa ishlov berish yer sharoitiga bog‘liq holda bajariladi, ya’ni yer maydoni ko‘chati kovlab olingan joymi yoki daraxtlari kesilib to‘nkalari qolgan maydonlarmi yoki shamoldan daraxtlari singan maydonlarmi bular yaxshi tozalanadi. Shundan so‘ng yerlarda muddatli haydash usuli bilan tuproqqa ishlov beriladi.

O‘zlashtirilgan maydonlarda tuproqqa ishlov berish almashlab ekish qoidasi asosida yoki chimli, qora, erta bahorgi haydashdan iborat. Yerni chuqur haydashga e’tibor berish tuproqqa asosiy ishlov berishda yuqori ahamiyatga ega. G‘ovakli yer maydonlarida esa yerni chuqur haydash yer yuzasi qattiq qatlamini yumshatish bilan o‘tkaziladi. Agar ko‘chatxona uchun sho‘rxok yer maydoni o‘zlashtiriladigan bo‘lsa, oldin ushbu yer maydoni yaxshilab yuviladi so‘ng haydash ishlari bajariladi.

Erta bahorda esa to‘plangan namlikni saqlash maqsadida tuproqning yuqorigi qatlami boronalanadi va bu tadbir yig‘ilgan tuzlarning tuproqning yuqori qatlamiga ko‘tarilishini kamaytiradi. Agar tuproq tarkibi juda ham zichlashgan bo‘lsa, yumshatgichlar yordamida tuproq 18 sm chuqurlikkacha yumshatilib boronalanadi yoki chizellanadi. Yer maydonlarini ag‘darib haydash, shudgorlash ko‘chatlar kovlab olingandan keyin bajariladi. Yer maydonlari plug va plug oldi moslamasi bilan 27-30 sm chuqurlikkacha haydaladi. Shunday ko‘rsatkichda haydalganda kuzgi-qishki yog‘ingarchilikdan yerda ko‘proq namlik yig‘ilsa, kasalliklar va hashorotlar nobud bo‘lib, har xil begona o‘tlar ildizlari quriydi. Yer maydonlarini erta ko‘klamda tayyorlashning kuzgi shudgorlashdan farqi ularni birdaniga boronalashdan iboratdir.

Kuzda tuproqni ag‘darish bu chim holida va boronalashdan iborat. Namlik miqdori katta maydonlarda yerni yumshatish 5-6 sm gacha qurg‘oqchilik yuqori bo‘lgan maydonlarda 6-8 dan 11-13 sm chuqurlikkacha bajariladi. Tuproqdagi begona o‘tlarni yo‘qotishda ildizi bilan diskali agregat yordamida 11-12 sm chuqurlikda o‘zaro perpendikulyar bo‘lgan yo‘nalishda ishlov

berish zarur bo‘ladi. Yoz faslining oxiri va kuz faslining boshlarida begona o‘tlar paydo bo‘lishi bilan pluglar ishtirokida yer yana bir bor haydab chiqiladi.

Erta bahordan boronalash ishlari boshlanadi, bu esa o‘z navbatida tuproqda kapilyar naylar hosil bo‘lib tuproqni xaloslashtiradi natijada tuproqda namlik miqdori saqlanib qoladi.

Begona o‘tlarni yo‘qotish va tuproqni ustini yumshatish urug‘larni unib chiqishiga, ko‘chatlarni o‘sib rivojlanishiga sharoit yaratadi. Begona o‘tlarni o‘z vaqtida olib tashlash natijasida ko‘chatlarga yorug‘lik, havo va ozuqa elementlari to‘liq o‘tkaziladi. Kuzda urug‘ sepilgan maydonlarda o‘tlarni yo‘qotish, tuproqni o‘z vaqtida yumshatib borish erta bahorda urug‘lar unib chiqmasdan va qatqaloq bo‘lmasdan o‘tkaziladi. Natijada unib chiqqan nihollar o‘z oromida yaxshi o‘sib rivojlana boshlaydi va yaxshi sifatli maxsulotni o‘z vaqtida bera oladi.

Kuzda egatlarga go‘ng solinadi, u tuproq yaxshilab aralashtirilgan bo‘lishi kerak. Baxorda egatlar tayyorlanib unga qum bilan aralashtirilgan kompost aralashmasi solinadi. Ekishdan oldin egatlar biroz tekislanadi. Urug‘lar sochib sepiladi, urug‘lar 1 sm chuqurlikda sepiladi, daraxt qipiqlari bilan berkitiladi va xar kuni suv sepkich bilan sug‘orilib turilad. mo‘lchalanadi). Toshkent sharoiti uchun akatsiya urug‘ini ekishning eng qulay muddatlari aprel oyining ikkinchi yarmi-may oyining boshlari qulay xisoblanadi. Urug‘ni (intensiv) bir tekis unib chiqishni ta’minlash uchun ariqdan sug‘orilib turiladi. Kuzgi faslda sovuq ob-xavo tushishi bilan ekilgan urug‘larni ustiga somon, paxol, qurigan barglar bilan yopiladi. Baxorda issiq ob-xavo oqimi kirib kelishi bilan nixollar tarbiya bo‘limiga yoki aloxida ajratilgan maydonda, kuzga tayrlabyu qo‘yilgan maxsus joyda ekiladi. Ko‘chatlar qator qilib ekiladi. Qator orasi 90 sm. Qatorlar orasi 40 sm qilib ekiladi. Vegetatsiya jarayonida parvarishlash: singdirib sug‘orish, qatorlar orasini kultivatsiya qilish kerak bo‘ladi.

3-4 yildan esa ko‘chatlarni ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barlilnikova A. D. O dlitelnosti soxraneniya vsxojesti semyan nekotorix introdusirovannix predstaviteley semeystva bobovix (Leguminosae Juss.).-V kn.: Introduksiya i akklimatizatsiya rasteniy, vip. 14. Tashkent: Fan, 1977, s. 88.
2. Barilnikova A. D. K biologii prorastaniya semyan i morfologii prorostkov nekotorix introdusirovannix predstaviteley semeystva bobovix. –V kn. Introduksiya i akklimatizatsiya rasteniy, vip. 14. Tashkent: Fan, 1977, s. 105.
3. Gayevskaya I. S. Introduksiya drevesnix i kustarnikovix rasteniy semeystva bobovix v TurkmeniY. –V kn.: Inroduksiya i ekologiya rasteniy, Ashxabad: Ilim, 1968, s. 20-23.
4. Xamroyev X. F., Ochilov T. Oshlovchi totim (rhus coriaria) urug ‘larini ekishga tayyorlashning urug ‘ko‘chat unishi va o ‘sib rivojlanishga ta’siri //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – S. 155-158. https://doi.org/10.5281/zenodo.7199854
5. Xamroyev X. F., O‘g‘li M. T. N., Ernazarov A. Y. Sharq chinori ko‘chatlarini vegetativ usulda yetishtirish//Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – S. 152-154.
6. Xamroyev X. F., Janabayev N.J. Ipak akatsiyasi albizia julibrissin durazz urug‘larini ekish muddatlarining unuvchanlikka ta’siri. //Science and innovation. – 2023. – №. Special Issue. – S. 540-542.